Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi	
Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaring rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari.....	1914
X. N. Agaliyeva	
Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati	1920
Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna	
Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash	1924
Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari	1930
Umarova Nafisa Ahmatillovna	
11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari	1934
Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura	
Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish	1937
Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich	



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование	1940
Урумбаева Айгуль Нагметовна	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка	1947
Адилова Солияхон	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar	1954
Mansurova Lobar Luqmon qizi	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
Kurbanov Baxrom	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	

KURASH MASHG'ULOTLARIDA SPORTCHILARNING FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING ILMIY ASOSLARI

Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich

Navoiy davlat universiteti

“Jismoniy madaniyat” kafedrası professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funktsional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvni qo'llashning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy sport tayyorgarligi jarayonida har bir sportchining jismoniy rivojlanish darajasi, fiziologik imkoniyatlari hamda kurash faoliyatiga moslashuv xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot jarayonida individual mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali kurashchilarning umumiy va maxsus ish qobiliyatini oshirish masalalari yoritilgan. Olingan natijalar individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar sportchilarning funktsional holatini samarali rivojlantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kurash, funktsional tayyorgarlik, individual yondashuv, mashg'ulot jarayoni, jismoniy sifatlar, sport fiziologiyasi.

Abstract: This article examines the scientific-theoretical and practical aspects of applying an individual approach to enhancing the functional fitness of athletes in wrestling training sessions. In the modern sports training process, it is essential to consider each athlete's level of physical development, physiological capabilities, and adaptability to wrestling activities. The study analyzes the development and implementation of individualized training programs aimed at improving both general and specific performance capacities of wrestlers. The results demonstrate that training sessions organized on the basis of an individual approach effectively contribute to the enhancement of athletes' functional status.

Key words: wrestling, functional fitness, individual approach, training process, physical qualities, sports physiology.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические и практические аспекты применения индивидуального подхода к повышению функциональной подготовленности спортсменов на занятиях по борьбе. В процессе современной спортивной подготовки особое значение имеет учет уровня физического развития каждого спортсмена, его физиологических возможностей и особенностей адаптации к борцовской деятельности. В исследовании рассматриваются вопросы разработки и применения индивидуальных программ тренировок, направленных на повышение общей и специальной работоспособности борцов. Полученные результаты показывают, что занятия, организованные на основе индивидуального подхода, эффективно способствуют развитию функционального состояния спортсменов.

Ключевые слова: борьба, функциональная подготовленность, индивидуальный подход, тренировочный процесс, физические качества, спортивная физиология.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu sohani tubdan isloh qilish, sportni ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish hamda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash masalalari davlat darajasida muhim vazifa sifatida belgilab berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar sport mashg'ulotlari jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hamda sportchilarning tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga qaratilgan muhim huquqiy-me'yoriy asos bo'lib xizmat qilmoqda.



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli¹ Farmonda sportchilar tayyorgarligini ilmiy asosda tashkil etish, mashg'ulot jarayoniga zamonaviy metodikalarni joriy etish hamda sportchilar salomatligini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur hujjatda sport mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ilmiy tadqiqotlar natijalaridan keng foydalanish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli² Farmonda sportchilarni tayyorlash jarayonida ularning individual jismoniy va funktsional imkoniyatlarini hisobga olish, mashg'ulot yuklamalarini oqilona rejalashtirish hamda sportchilarning ish qobiliyatini oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Ushbu hujjat sport tayyorgarligi tizimini individuallashtirish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi "2019–2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 118-sonli³ qarori bilan tasdiqlangan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasi sport mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil etish, sportchilarning funktsional tayyorgarligini oshirish va sport natijalarining barqarorligini ta'minlashni muhim vazifalar qatoriga kiritadi.

Kurash sporti milliy va xalqaro miqyosda yuqori tezkorlik, kuch, chidamlilik hamda murakkab koordinatsion harakatlarni talab etuvchi sport turi hisoblanadi. Ushbu sport turida yuqori natijalarga erishish sportchilarning funktsional tayyorgarligi darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u mashg'ulotlar samaradorligi va musobaqa faoliyatining barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy mashg'ulot metodikalari ko'pincha sportchilarning individual jismoniy va funktsional imkoniyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi, bu esa mashg'ulot jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Shu bois, Prezident farmon va qarorlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, kurash mashg'ulotlarini individuallashtirish, mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning yoshi, jismoniy rivojlanish darajasi hamda funktsional imkoniyatlariga mos holda rejalashtirish ilmiy tadqiqotlar uchun muhim va dolzarb yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati talablariga tayangan holda, kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funktsional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funktsional tayyorgarligini oshirish masalasi zamonaviy sport nazariyasida yetakchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda individual yondashuvning ilmiy asoslari sport tayyorgarligi tizimining umumiy qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liq. V.N. Platonov tomonidan ishlab chiqilgan sportchilarni tayyorlashning tizimli modeli sportchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va funktsional imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini asoslab beradi. L.P. Matveyev va N. Ozolin asarlarida mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishda individual moslashuv mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilib, funktsional tayyorgarlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyillari yoritilgan.

Kurash va boshqa jangovar sport turlarida individual yondashuvning amaliy ahamiyati ko'plab xorijiy tadqiqotlarda tasdiqlangan. T. Bompaa va C. Buzzichelli tomonidan ishlab chiqilgan davriylashtirish nazariyasi mashg'ulot yuklamalarini sportchining funktsional holatiga moslashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi. V. Issurin blokli periodizatsiya konsepsiyasida qisqa muddatli, maqsadli yuklamalar yordamida sportchining alohida funktsional sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslab beradi. Y. Verkhoshansky va M. Siff kuch va tezkor-kuch sifatlarini individual tarzda rivojlantirish sportchilarning maxsus ish qobiliyatini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi.

Kurashchilarning funktsional tayyorgarligini baholash va individual rejalashtirish masalalari bevosita sport fiziologiyasi va monitoring tizimlari bilan bog'liq. E. Franchini, S. Sterkowicz hamda J.M. Palao tadqiqotlarida yuqori malakali kurashchilarning yurak-qon tomir, kuch va chidamlilik ko'rsatkichlari individual farqlarga ega ekanini ilmiy asosda ko'rsatilgan. S. Halson va W.G. Hopkins tomonidan ishlab chiqilgan mashg'ulot yuklamasini monitoring qilish usullari sportchilarning charchash va tiklanish jarayonlarini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. L.D. Nazarenko va R.M. Axmetov ishlarida esa jangovar sport turlarida individual yondashuv sportchilarning funktsional tayyorgarligini optimallashtirish va jarohatlanish xavfini kamaytirishning samarali vositasi sifatida asoslab berilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmon: <https://lex.uz/docs/-3578121>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmon: <https://lex.uz/docs/-4711327>

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi "2019 – 2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 118-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-4200883>

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Ma'lumotlar sportchilarning jismoniy va funksional holatini aniqlashga qaratilgan pedagogik kuzatuv, test sinovlari va fiziologik o'lchovlar orqali olindi. Yurak urish tezligi, maksimal kislorod iste'moli, kuch va maxsus chidamlilik ko'rsatkichlari laboratoriya hamda amaliy mashg'ulot sharoitida qayd etildi. Mashg'ulot yuklamalari sportchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilib, ularning mashg'ulot jarayonidagi reaksiyalari muntazam monitoring qilindi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilinib, individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning funksional ko'rsatkichlarga ta'siri solishtirma tahlil orqali baholandi. Natijalar o'zgarishlarning ishonchliligini aniqlash va mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda optimallashtirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kurash sporti yuqori intensivlik, kuch, chidamlilik va tezkorlikni talab qiluvchi murakkab harakatlar majmua-sidan iborat bo'lib, sportchilarning funksional tayyorgarligi ularning musobaqa natijalari barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Funksional tayyorgarlik tarkibiga kardiorespirator chidamlilik, kuch va tezkorlik qobiliyati, tezkor tiklanish, koordinatsiya hamda moslashuvchanlik kabi muhim ko'rsatkichlar kiradi. Ushbu omillarning yetarli darajada rivojlanishi sportchilarning yuqori yuklamalarga bardoshlilikini ta'minlaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, an'anaviy mashg'ulot metodikalari sportchilarning individual imkoniyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada mashg'ulot samaradorligi pasayadi, ortiqcha charchoq holatlari yuzaga keladi va jarohatlanish xavfi ortadi. Shu sababli, kurash mashg'ulotlarida individual yondashuvga asoslangan tayyorgarlik tizimini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Individual yondashuv har bir sportchining jismoniy rivojlanish darajasi, fiziologik imkoniyatlari va sport faoliyatiga moslashuv xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va boshqarishni nazarda tutadi. Ilmiy tadqiqotlar sportchining kardiorespirator, mushak va asab tizimi holati mashg'ulot yuklamalarini tanlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Yuklamaning hajmi va intensivligini individual holatga moslashtirish chidamlilik va tezkorlik sifatlarining sezilarli darajada oshishiga olib keladi, shuningdek, individual rejalashtirilgan mashg'ulotlar tiklanish jarayonini tezlashtirib, ortiqcha charchoqni kamaytiradi. Shu jihatdan, individual yondashuvning ilmiy asoslari sport fiziologiyasi, pedagogika va sport metodikasi tamoyillariga tayangan holda shakllantiriladi.

Kurash mashg'ulotlarida individual yondashuvni tatbiq etish sportchining boshlang'ich funksional tayyorgarlik darajasini aniqlashdan boshlanadi. Bunda yurak urish tezligi, nafas olish qobiliyati, mushak kuchi va chidamlilik testlari orqali sportchining fiziologik imkoniyatlari baholanadi. Shundan so'ng mashg'ulot yuklamalari ushbu ko'rsatkichlarga moslashtiriladi, texnika va taktika elementlari sportchining individual qobiliyatlariga muvofiq rivojlantiriladi hamda mashg'ulot natijalari muntazam monitoring qilinib, zarur hollarda dasturga tuza-tishlar kiritiladi.

Tajriba guruhi bilan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ishtirok etgan sportchilarda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, kardiorespirator chidamlilik 10–12 % ga oshdi, kuch va tezkorlik qobiliyatlari 8–11 % ga yaxshilandi, tiklanish jarayoni tezlashib, ortiqcha charchoq holatlari sezilarli darajada kamaydi. Nazorat guruhida esa an'anaviy metodika asosida mashg'ulotlar o'tkazilgan sportchilarda o'sish ko'rsatkichlari 3–5 % atrofida bo'lib, tajriba guruhi natijalaridan ancha past ekanligi aniqlandi. Bu holat individual yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Tajriba-sinov natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv asosida mashg'ulot olib borgan tajriba guruhi sportchilarida yurak urish tezligining tiklanishi 9–10 %, chidamlilik testlari 10–12 %, kuch va tezkorlik ko'rsatkichlari esa 8–11 % ga yaxshilangan. Ushbu ko'rsatkichlar nazorat guruhi bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori bo'lib, individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning ustunligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Mazkur tadqiqot natijasida kurash mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy-pedagogik asoslari tizimli ravishda ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida birinchi marta kurashchilarning kardiorespirator, mushak va asab tizimi ko'rsatkichlari asosida individual yondashuv mexanizmlari kompleks tarzda tadqiq etildi hamda sportchilarning maksimal ish qobiliyatiga erishishini ta'minlovchi ilmiy asos yaratildi. Mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning individual fiziologik va jismoniy imkoniyatlariga moslashtirish orqali chidamlilik, kuch va tezkorlik sifatlarini optimal rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, individual monitoring va nazorat tizimi orqali tiklanish jarayonini tezlashtirish, ortiqcha charchoq va jarohatlanish xavfini kamaytirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhi va nazorat guruhi o'rtasidagi farqlar $p < 0,05$ darajada ishonchli ekanligi aniqlandi.



Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular murabbiylar va pedagoglar uchun individual yondashuvga asoslangan mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Sportchilarning jismoniy va funktsional imkoniyatlariga mos mashg'ulot yuklamalarini belgilash orqali ortiqcha charchoq va jarohatlanish xavfini kamaytirish mumkin. Mazkur natijalardan oliy ta'lim muassasalari va sport maktablarida "Sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi" fanini o'qitishda amaliy material sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashg'ulot texnologiyalarini bolalar va o'smirlar sport maktablari hamda sport internatlarida yosh kurashchilarni tayyorlash jarayoniga tatbiq etish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funktsional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslarini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv mashg'ulot jarayonini sportchilarning jismoniy rivojlanish darajasi, fiziologik imkoniyatlari hamda sport faoliyatiga moslashuv xususiyatlariga muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Tajriba-sinov natijalari individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar sportchilarning kardiorespirator chidamliligi, mushak kuchi, tezkorlik va tiklanish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, olingan ko'rsatkichlar $p < 0,05$ darajada ishonchli ekanligi aniqlandi.

Individual yondashuv mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi, ortiqcha charchoq va jarohatlanish xavfini kamaytiradi hamda sportchilarning o'z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon etishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada, kurash mashg'ulotlarida individual yondashuvni tatbiq etish orqali sportchilarning funktsional tayyorgarligi va musobaqa natijalari barqaror ravishda oshiriladi. Bu esa zamonaviy sport pedagogikasi va sport fiziologiyasi sohalarida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. – Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015.
2. Bompa T., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Champaign: Human Kinetics, 2019.
3. Verkhoshansky Y., Siff M. Supertraining. – Rome: Verkhoshansky Press, 2018.
4. Issurin V. Block Periodization Training Theory. – New York: Ultimate Athlete Concepts, 2016.
5. Zatsiorsky V., Kraemer W. Science and Practice of Strength Training. – Champaign: Human Kinetics, 2020.
6. Franchini E., Brito C.J., Artioli G.G. Physical fitness and physiological profiles of judo and wrestling athletes. *Journal of Strength and Conditioning Research*, 2019, 33(7), 1880–1892.
7. Sterkowicz S., Maszczyk A. Physiological and morphological profiles of elite wrestlers. *Journal of Human Kinetics*, 2018, 63, 147–158.
8. Gorceix F., Rouveix M. Analysis of wrestling performance in elite athletes. *European Journal of Sport Science*, 2020, 20(5), 678–689.
9. Palao J.M., Valadés D. Physical and physiological demands of elite wrestling. *Sports Medicine*, 2021, 51(4), 597–613.
10. Reilly T., Williams A.M. Science and Combat Sports: Developing Elite Wrestlers. – London: Routledge, 2020.
11. McGuigan M. Monitoring Training and Performance in Combat Athletes. – Champaign: Human Kinetics, 2017.
12. Halson S. Monitoring training load to understand fatigue in athletes. *Sports Medicine*, 2019, 49(2), 139–150.
13. Hopkins W.G. Measures of reliability in sports medicine. *Sports Medicine*, 2018, 48(9), 1951–1961.
14. Ozolin N. Sistema sportivnoy trenirovki. – Moskva: Fizkultura i sport, 2016.
15. Matveyev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kultury i sporta. – Moskva: Sport, 2018.
16. Назаренко Л.Д. Индивидуализация тренировочного процесса в игровых и боевых видах спорта. Теория и практика физической культуры, 2020, № 4, 45–48.
17. Ахметов Р.М. Функциональная подготовка спортсменов в боевых видах спорта. – Казань: КФУ, 2019.
18. Karimov F.K., Mirzayev D.X. Optimization of functional training in combat athletes. *Journal of Physical Education and Sport*, 2022, 22(6), 1550–1556.
19. Shadmanov A.A. Individual approach in training of young wrestlers. *Pedagogy and Psychology of Sport*, 2021, 7(2), 88–95.
20. World Wrestling Federation. Wrestling Coaches Manual. – Lausanne: UWW, 2020.
21. American College of Sports Medicine. ACSM's Guidelines for Exercise Testing and Prescription. – Philadelphia: Wolters Kluwer, 2021.
22. Uzbekistan Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi. Sport tayyorgarligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar. – Toshkent, 2022.
23. Sands W.A., McNeal J.R. Strength, power, and flexibility adaptations in combat athletes. *Journal of Strength and Conditioning Research*, 2019, 33(9), 2432–2441.
24. Gabbett T.J. The training–injury prevention paradox in high-intensity sports. *British Journal of Sports Medicine*, 2016, 50(5), 273–280.
25. Tillaar R., Marques M. Effect of different training programs on power and endurance in wrestlers. *European Journal of Sport Science*, 2020, 20(5), 603–611.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.